

“Jamoat transportida Humans VISA bank kartasi orqali to‘lov uchun 25% Keshbek” Aksiyasi qoidalari (yangi tahrir).

21-avgust 2023-yil.

ATTO validatorlari bo‘lgan jamoat transportida (metro, avtobus) Humans VISA bank kartasi orqali to‘lov uchun 25% Keshbek Aksiyasi (keyingi o‘rinlarda – Aksiya) «Humans» mas‘uliyati cheklangan jamiyati tomonidan “Humans” Sodiqlik Dasturi doirasida o‘tkazilmoqda, manzili: 100047, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko‘ch., 2 B uy, STIR 306624856 (Humans).

1. AKSIYA TO‘G‘RISIDAGI MA‘LUMOT

1.1. Ushbu Qoidalar matnida katta harfdan boshlab yozilgan so‘zlar atamalar hisoblanadi. Atamalar mazmuni www.humans.uz Saytida joylashtirilgan Humans Sodiqlik Dasturi Qoidalarida keltirilgan (agar o‘zga mazmunlar ushbu Qoidalarda belgilanmagan bo‘lsa).

1.2. Aksiya ishtirokchilari – Humans bilan Aloqa xizmatlari bo‘yicha Shartnoma tuzgan, shuningdek «Ravnaq-bank» AJ bilan Humans moliyaviy servis xizmatlarini taqdim etish yuzasidan shartnoma tuzgan va uning asosida Ishtirokchi uchun Humans VISA bank kartasi chiqarilgan hamda ushbu Qoidalarning 2 bo‘limida aytib o‘tilgan harakatlarni amalga oshirgan jismoniy shaxs Mijozlardan iborat.

1.3. Aksiya o‘tkaziladigan hudud: Toshkent sh., Samarqand sh., Qarshi sh., Andijon sh.

1.4. Aksiyaning o‘tkazilish davri: 31.05.2023-yildan 30.11.2023-yilgacha shu jumladan.

1.5. To‘lov - ushbu Aksiya Qoidalarining maqsadlari uchun To‘lov deganda Mijozning Humans VISA bank kartasidan foydalangan holda ATTO validatorlari bo‘lgan jamoat transportida (metro, avtobus) to‘lov qilish maqsadida Sheriklar oldidagi pullik majburiyatni bajarish tushuniladi.

1.6. Aksiya Sherigi – «AVTOMATLASHTIRILGAN TRANSPORT TO‘LOV TIZIMI OPERATORI» MChJ.

2. AKSIYA TA‘RIFI

2.1. Aksiyani o‘tkazish davrida va ushbu Qoidalarga amal qilgan holda, Humans VISA bank kartasidan foydalanib Sheriklarda qilingan to‘lov miqdoridan 25% li Keshbek oladilar.

2.2. Aksiyada Humans sodiqlik Dasturining amaldagi Ishtirokchilari bo'lgan va ularning Humans sodiqlik Dasturidagi ishtiroki to'xtatilmagan yoki tugatilmagan Ishtirokchilar qatnashishlari mumkin.

2.3. Ishtirokchi olingan Keshbekdan qat'iyana Humans Sodiqlik dasturi shartlariga muvofiq foydalanishi mumkin va Keshbekni pul shaklida ololmaydi.

2.4. Sheriklardan To'lov bekor qilingan holda o'tkazilgan Keshbek ham bekor qilinadi va Aksiya Ishtirokchisining Keshbek-hisobidan chiqariladi.

3. YAKUNIY QOIDALAR

3.1. Ushbu Qoidalar Humans Saytida e'lon qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Humans ushbu Qoidalarni bir tomonlama o'zgartirish, Saytga tegishli xabarni joylashtirish orqali bu haqda xabar berish yo'li bilan Aksiyani bekor qilish huquqiga ega. Xabarnoma sanasi etib Saytda tegishli ma'lumotlar e'lon qilingan sana hisoblanadi. Saytda tegishli ma'lumotlar e'lon qilingan vaqtdan boshlab Qoidalar o'zgartirilgan, Aksiya esa bekor qilingan hisoblanadi.

3.2. Ishtirokchi tomonidan Humans VISA kartasidan foydalangan holda Sheriklarda to'lov amalga oshirilishi jismoniy shaxslarga yo'naltirilgan oferta hisoblangan Qoidalar bilan to'liq va so'zsiz rozi ekanligini anglatadi.

3.3. Ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan boshqa holatlarda Humans Sodiqlik Dasturining Qoidalariga amal qilinadi.